
Mahalla raislari saylovi yakuniga bag'ishlangan brifing tashkillandi

Rishton tumanida 16-31 may kunlari o'tkazilgan mahalla fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovi natijalari xususida brifing tashkil etildi. Unda tuman sektor rahbarlari, saylovda xalq ishonchini qozongan raislar, hududlardagi xotin-qizlar faollari, hokim yordamchilari, yoshlar yetakchilari hamda ommaviy axborot vositalari xodimlari qatnashdi. Yig'ilishda Viloyat Mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash boshqarmasi boshlig'i B. Xoliqov, tuman hokimi Sufhonjon Soliev hamda sektor rahbarlari so'z olib, mahalla instituti faoliyatini yanada takomillashtirish, hududlarda jinoyatchilikning oldini barvaqt olish, huquqbuzarliklar profilaktikasini tashkillash, aholi bandligini ta'minlash hamda murojaatlar bilan ishlash samaradorligini oshirish bo'yicha mahalla jamoatchiligi zimmasiga yuklatilgan asosiy vazifalar haqida fikr yuritdilar. Fuqarolar yig'inlari raislari (oqsoqollari) saylovini tashkil etish va o'tkazishga ko'maklashuvchi tuman komissiyasi raisi Mahmudjon Mamajonovning axborotida ta'kidlanishicha, tumanda saylash huquqiga ega fuqarolar soni 118 ming 988 nafarni, saylangan vakillar soni esa (umumiy saylovchilar sonining kamida 12 foizi) 15 ming 262 nafarni tashkil etgan. Shundan 11 ming 522 nafar vakil (75,5 foiz) saylovda qatnashib, o'zlari munosib deb topgan nomzodlarga ovoz berishdi. Saylangan raislarning 57 nafari birinchi marta, 14 nafari qayta saylangan. Saylangan raislarning 2 nafari ayollar. Raislarning 70 nafari oliy ma'lumotga ega. Saylanganlardan 13 nafari 30-40 yosh, 10 nafari 40-50 yosh, 31 nafari 50-60 yosh, va 17 nafari 60 yoshdan yuqori bo'lgan fuqarolar hisoblanadi. Raislarning 27 nafari kasbi bo'yicha o'qituvchi, 5 nafari iqtisodchi, 7 nafari muhandis, 4 nafari huquqshunos, 4 nafari agronom, 2 nafari quruvchi va 22 nafari boshqa soha vakillaridir. Saylangan raislarning 8 nafari ta'lim, 14 nafari maxalla tizimida, 17 nafari tadbirkorlik sohasida 1 nafari kurolli kuchlarda, 15 nafari pensiyada va 15 nafari boshqa soxalarda ishlab kelishgan. Brifing yakunida mahalla raislarining kelgusi faoliyatida davomli muvaffaqiyatlar tilandi.

2022-06-03 14:59:22